

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.PED.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

RAZUVAEVA IRINA YUREVNA

**TALABALARNING JISMONIY TARBIYASINI GANDBOL VOSITALARI
YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD) po
pedagogicheskim naukam**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
science**

Razuvaeva Irina Yurevna

Talabalarning jismoniy tarbiyasini gandbol vositalari yordamida
takomillashtirish.....3

Razuvaeva Irina Yurevna

Sovershenstvovanie fizicheskogo vospitaniya studentov sredstvami gandbola.....25

Razuvaeva Irina Yurievna

Improvement of students physical education by means of handball.....49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Spisok opublikovannykh rabot

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.PED.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

RAZUVAEVA IRINA YUREVNA

**TALABALARNING JISMONIY TARBIYASINI GANDBOL VOSITALARI
YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.2.PhD/Ped2636 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali manzilida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Erdonov Orif Latipovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich biologiya fanlari doktori, professor Ismagilov Damir Kanganovich pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: jtsu@jtsu.uz, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ma'muriy B binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76,

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

M.R. Boltabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

I.I. Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

F.A. Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda so‘nggi yillarda “Jismoniy tarbiya” fanini o‘qitish amaliyotida jismoniy tarbiya talabalar shaxsiy hayoti va ularning shakllanishidagi ahamiyatini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida sport turlari ommaviyligini oshirish, xususan, gandbol vositalari yordamida gipodinamiyani oldini olish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Turli xil mamlakatlar mutaxassislarining fikriga ko‘ra, talabalarni sportga jalb qilish vazifasi ko‘p jihatdan sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida, uni jismoniy tarbiya tizimiga kiritish orqali hal etilishiga sabab bo‘lmoqda. Gandbol, o‘quv dasturiga kiritilgan sport turlaridan biri sifatida, universitetlarda sportni rejali rivojlantirishda va talabalarni ommaviy sport tadbirlariga jalb qilishda muhim o‘rin egallaydi, bu, imkon qadar ko‘p sonli talaba yoshlarni sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonning rivojlangan davlatlarida jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori kompetentli mutaxassislarni tayyorlashni ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash, sportga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish sport turlari bo‘yicha texnik-taktik xarakterlarni takomillashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fan va texnologiya rivojlangani sari ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos bo‘lgan ilmiy asoslangan jismoniy kamolotga erishishga yo‘naltirilgan yangi vosita va usullarini izlab topish hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda uslubiyatining eng muhim vazifasi hisoblanmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida butun o‘quv yili davomida gandbol mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda talabalar jismoniy tarbiyasini gandbol vositalaridan samarali foydalanish asosida amalga oshirilishi ushbu jarayonning mazmuni, tashkiliy ta’minoti yetarli emasligi tufayli salbiy omillardan biri sifatida ta’kidlanmoqda, bu esa, o‘z navbatida, talabalarning jismoniy tayyorgarligi, jismoniy holati va funksional ko‘rsatkichlari darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish yangi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish raqobatbardosh, jismonan va ma’nan yetuk, keng doiradagi intellektual salohiyatga va yuqori ishchanlik qobiliyatiga ega malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. “Yosh avlodni har tomonlama yetuk etib tarbiyalash, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish, ularga o‘z qobiliyatini va iste’dodini ro‘yyobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish”¹ vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga ajratilgan soatlarning muntazam kamayib borishi kuzatilmoqda, vaholanki jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ko‘pchilik talabalar uchun harakat faolligini saqlab qolishning yagona yo‘li bo‘lib qolmoqda. O‘quv jarayoni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-sonli Farmoni. Lex.uz

talabalarning chuqur nazariy bilim, har tomonlama tayyorgarlik ko'nikmalari hamda zarur sport malakasini tarkib toptirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy izlanishlarni talab etmoqda hamda tanlangan sport turi bo'yicha sportga yo'naltirilgan mashg'ulotlar asosida zamonaviy yondashuvlar zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi 65-son "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida"gi Qarori hamda jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish va ommalashtirish sohasidagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy- ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda sport o'yinlari, xususan, gandbol nazariyasi va uslubiyatining dolzarb muammolaridan biri-iqtidorli yoshlarni gandbol mashg'ulotlariga tayyorlashda sportga yo'naltirilgan texnologiyani ishlab chiqish hamda joriy etish va ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o'yin mahoratini yanada takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish sharoitlarida ta'lim-tarbiyaning shunday shakl va uslublari ustuvor hisoblanadiki, ulardan foydalanish talabalarda jismoniy tarbiya vositalariga nisbatan qadriyatli munosabatni yuqori samara bilan shakllantiradi, jismonan mustaqil rivojlanish hamda o'zini o'z ro'yobga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Talabalarni jismoniy takomillashtirishga qaratilgan ta'lim jarayoni individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillariga asoslanishi kerak, ular talabalarning salomatlik holati, motivatsiyasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularni tanlangan jismoniy tarbiya-sport faoliyati shakllarida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi, bu OTM dagi jismoniy tarbiyaning mazmuni va turli-tuman shakllari o'zgaruvchanligini ta'minlaydi (E.A. Seythalilov, L.R. Ayrapetyants, T.E. Nabiyev, I.V. Babicheva, A.A. Abdurahmanova, V.S. Qosimova)².

² Сейтхалилов Э.А., Айрапетьянц Л.Р. К вопросу о четвертом целеполагании учебно-воспитательного процесса // Фан-спортга. - Т., 2006. - № 4. - С. 23-28.; Набиев Т.Э. Исследование мотивационно-ценностного отношения к физкультурно-оздоровительной деятельности у студентов // Мат. межд. научно-метод. конф. посвященной 45-летию кафедре физического воспитания Владимирского государственного университета.; Бабичева И.В. Технология оздоровительной аэробики в системе физического воспитания студентов: Дис. ... канд. пед. наук. - Т., 2011. - 124 с.; Абдурахманова А.А., Косимова В.С. Факторы, влияющие на качество физического воспитания студентов в высших учебных заведениях // научно- методический журнал «Проблемы науки». - М., 2019. - № 4(40). - С. 83-85.;

Tadqiqotchilar J.A. Akramov, O.X. Abdalimov, V.I. Izaak, T.E. Nabiyevlarning fikricha, hozirgi paytda har bir oliy ta'lim muassasasi oldida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori darajada olib borish vazifasi qo'yilgan bo'lib, bu sog'lomlashtirish jarayonini tashkil qilishning zamonaviy uslublarini qo'llashni taqozo etadi. Ular, salomatlik holati yaxshi bo'lgan sharoitlarda yanada samarali joriy etiladi, yuqori darajadagi ishchanlik qobiliyatini oshirishga, olingan bilim va ko'nikmalarni amaliy ish faoliyatida qo'llashga imkon beradi. Bunday bilim va ko'nikmalarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish jarayonida egallash mumkin³.

Shu sababli, jismoniy tarbiya shakllarining variantlilik hamda har xilligi tamoyilini amalga oshirish tarbiya jarayoni mazmunini haddan ziyod yagonalashtirish va standartlashtirishdan voz kechish, shug'ullanuvchilarning psixologik xususiyatlari va qiziqishlari, iqlimiy shart-sharoitlar, milliy madaniy-tarixiy an'analar, muayyan o'quv muassasalarining moddiy-texnik ta'minotini inobatga olgan holda muqobil dasturlar yaratilishini taqozo etadi (I.V. Bogdanova, Y.O. Lykin, V. Vlasov, M.N. Robodanov)⁴.

Ayni paytda, MDH davlatlarining taniqli mutaxassislari shuni e'tirof etishadiki, talabalarning jismoniy tarbiya amaliyotida ham o'quv jarayoni, ham mustaqil mashg'ulotlarni tashkil qilishning har xil tomonlariga tegishli kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi keng qo'llanib kelinmoqda (V.S. Ashanin, V.Y. Volkov, G.I. Popov)⁵.

Axborot texnologiyalarining joriy qilinishi talabalarning jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlari darajasini oshirishga va moslashtirishga imkon beradi. Ushbu yo'nalishni o'rganishga bo'lgan majmuaviy yondashuvda ham o'quv jarayonida, ham o'qishdan tashqari vaqtlarda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish istagi hamda imkoniyatlariga ta'sir qiluvchi ko'pgina omillarni optimallashtirish yo'li orqali turli hil vazifalarni hal etish masalasi yuzaga keladi (M.Bon, A.Georgescu, C.Rizescu, C.Varzaru)⁶.

Ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yosh avlodni jismonian tarbiyalash va salomatligini mustahkamlash uchun gandbol vositalaridan foydalanish

³ Акрамов Ж.А., Абдалимов О.Х. Гандбол как эффективное средство повышения физической и боевой подготовки курсантов учебного заведения СНБ // Сб. научных трудов, посвященный 40-летию кафедры футбола и ручного мяча. - Т.: УзГИФК, 2007. - С. 117-119.; Иzaak В.И., Набиев Т.Э. Гандбол в вузе // Учебник для преподавателей и студентов неспециализированных вузов. - Т., 2004. - 120 с.; - Владимир, 2009. - С. 191-195.

⁴ Богданова И.В., Лыкин Ю.О., Власов В., Рободанов М.Н. Влияние общефизической подготовки на физическое состояние студентов // Теория и практика физической культуры. - М., 2020. - № 9. - С. 51-53.

⁵ Ашанин В.С. Состояние и перспективы информации образования в вузах физической культуры // Педагогика, психология и медико-биологические проблемы физического воспитания и спорта: Сб. науч. трудов. - Харьков, 2000. - № 19. - С. 20-25.; Волков В.Ю. Компьютерные технологии в физической культуре, оздоровительной деятельности и образовательном процессе // Теория и практика физической культуры. - М., 2001. - № 5. - С. 56-61.; Попов Г.И. Информационные технологии в образовании в отрасли физической культуры и спорта // Вестник учебных заведений физической культуры. - М. - 2004. - № 1(2). - С. 22-23.

⁶ Bon M. Computer vision system for tracking handball players during the match / M. Bon // Coaches' Seminar during the 2004 Men's European Championship in Slovenia. 22 of January - 1 of February. - Austria: EHF, Vienna, 2004. - P. 1-8.; Georgescu, A., Rizescu C., Varzaru C. Improving Speed to Handball Players // Revista Romaneascapentru Educatie Multidimensionala. - 2019. - Vol. 11. - № 1. - P.73-87

texnologiyasini ishlab chiqish va individual yondashuv tamoyillarini amalga oshirish, oliy ta'limning namunaviy dasturining me'yoriy talablarini individual yondashuv tamoyillarini amalga oshirish asosida muvaffaqiyatli bajarish, yuklamani yurak ritmi monitorini qo'llash bilan boshqarish talabalarni jismonan takomillasuvi amaliyotining ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №V/I.19. "O'zbekistonda gandbol, tennis, badminton, regbining ilmiy-uslubiy bazasini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gandbol vositalaridan foydalanish asosida jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayoni samaradorligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda gandboldagi texnik-taktik harakatlarni bajarish jarayonida yurak ritmi ma'lumotlari asosida texnologik konseptual modelni takomillashtirish;

texnik tayyorgarlikni yaxshilashga yordam beruvchi maxsus mashqlarni ishlab chiqish uchun gandbolchilarning musobaqa faoliyatida blok ustidan sakrab turib yiqilish fazasida to'p bilan zarba berish ko'rsatkichlarini aniqlash;

aerob va anaerob shiddat zonalarini (yurak qisqarishi sur'ati bo'yicha) aniqlash asosida talabalarining funksional va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish;

mikrotsikllarda tuzatishlar kiritish asosida o'yin va kombinatsiyalar elementlarini takomillashtirish (interfaol doska va multimedia dasturidan foydalanish).

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining gandbol bilan shug'ullanuvchi 1- va 2- bosqich talabalarini o'quv-pedagogik jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini gandbol vositalaridan foydalangan holda jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy va nazariy mashg'ulotlar metodikasini takomillashtirishga qaratilgan vosita va usullar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; antropometriya, testlash, instrumental uslublar (yurak ritmi monitori), pedagogik tajriba, matematik-statistika uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ta'lim tizimida talabalarining jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonini ta'minlashga qaratilgan gandbol sport o'yinining texnik-taktik harakatlarini bajarish paytida yurak ritmini nazorat qilish orqali boshqariladigan texnologik konseptual modelni takomillashtirish hisobiga tezkor axborotlarni multimedia sharoitida qo'llash uslubiyati kengaytirilgan;

gandbol bilan shug'ullanuvchi talabalarining o'yindagi barqarorlik darajasidan kelib chiqib, maxsus murakkab koordinatsiyali harakatlarni bajarishda (blok ustidan sakragan holatdagi yiqilish fazasida to'pni uloqtirish) maxsus gandbol o'yin harakatlarni faol (bir nechta texnik harakatlarni qo'shib bajarish) turlarini

kombinatsiyalash hisobiga texnik tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

talabalarning jismoniy tarbiya va sport o'quv jarayonidagi gandbol bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarida organizmning yetarli darajada zo'riqishini hamda ortiqcha toliqishni oldini olishga qaratilgan aerob va anaerob shiddat zonalarini (yurak urish soni bo'yicha) belgilab berish hisobiga funksional va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyati kengaytirilgan;

talabalar uchun gandbol o'quv-mashg'ulotlar monotonligini yo'qotish maqsadida mikrotsikllarining turli yo'nalishlarida yuklamalarni o'zgartirish (tanlov oldidan interfaol doska va multimedia dasturidan foydalanish) hisobiga katta hajm va shiddatdagi o'yin elementlari va kombinasiyalarini o'zlashtirish uslubiyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Polar” firmasining yurak ritmi monitoridan foydalangan holda o'yin davomidagi o'rtacha YuQS ko'rsatkichi, eng yuqori puls ma'lumotlari asosida musobaqa faoliyati aniqlangan;

tajribaviy texnologiyaning talabalar o'quv-mashg'ulotlari jarayoniga joriy etilishi asoslab berilgan;

kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

amaliy va o'quv-mashg'ulotlarida texnik va taktik harakatlarga o'rgatish texnologiyasi takomillashtirilgan, uning samaradorligi pedagogik tajribada asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shu bilan tasdiqlanadiki, ular jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda tadqiqotni ilmiy tashkil etish sohasidagi xorijiy mutaxassislar va O'zbekiston Respublikasi tadqiqotchilarining ilmiy nazariyalariga asoslanganligi, qo'llanilgan har tomonlama tadqiqot apparati ishda oldinga qo'yilgan vazifalarga mos keladi va ishonchlikning yetarli darajasi olingan tadqiqot materiallarining matematik statistika usullari yordamida tahlil qilinganligi va ishlab chiqilganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, asosiy nazariy holatlar, amaliy tavsiyalar o'quv qo'llanmada taqdim etilgan hamda OTMlardagi amaliy va nazariy mashg'ulotlarda jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan qo'llanilishi, shuningdek, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun ma'ruzalarda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati, gandboldan foydalanish texnologiyasining qo'llanilishi talabalarning jismoniy tarbiya bo'yicha pedagogik jarayonini takomillashtirishga, ya'ni har tomonlama tayyorgarlikni aniqlash, kamchiliklarni topish va tuzatish, ilmiy asoslangan vositalarning qo'llanilish samaradorligini hamda musobaqalarda ishtirokini monitoring qilish va umuman, talabalarning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ta'lim jarayonini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning o'quv jarayonida gandbol vositalaridan foydalanish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari sharoitlarida o'tkazilgan tajribalar asosida:

ta'lim tizimida talabalarning jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv jarayonini ta'minlashga qaratilgan gandbol sport o'yinining texnik-taktik harakatlarini bajarishda yurak ritmini nazorat qilish orqali boshqariladigan texnologik konseptual modelni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Gandbol Federasiyasiga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 16 martdagi 03-13/225-son ma'lumotnomasi). Natijada, gandbol bo'yicha musobaqa faoliyati jarayonida taktik harakatlarni bajarish samaradorligi 10-15% ga oshgan;

gandbol bilan shug'ullanuvchi talabalarning o'yindagi barqarorlik darajasidan kelib chiqib maxsus murakkab koordinatsiyali harakatlarni bajarishda (blok ustidan sakragan holatdagi yiqilish fazasida to'pni uloqtirish) maxsus gandbol o'yin harakatlarni faol (bir nechta texnik harakatlarni qo'shib bajartirish) turlarini kombinatsiyalash bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Gandbol Federasiyasiga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 16 martdagi 03-13/225-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning funksional holati 9-10% ga va harakat tayyorgarligi 9,4% ga yaxshilangan;

talabalarning jismoniy tarbiya va sport o'quv jarayonidagi gandbol bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda organizmning yetarli darajada zo'riqishini hamda ortiqcha toliqishni oldini olishga qaratilgan aerob va anaerob shiddat zonalarini (yurak urish soni bo'yicha) belgilab berish bo'yicha amaliy tavsiyalar Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining gandbol bilan shug'ullanuvchi 1- va 2-bosqich talabalarining o'quv-mashg'ulotlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 16 martdagi 03-13/225-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning jismoniy tayyorgarligi 8-9% ga yaxshilangan;

talabalar uchun gandbol o'quv-mashg'ulotlarining monotonligini bartaraf qilish maqsadida mikrotsikllarning turli yo'nalishlarida yuklamalarni o'zgartirish (tanlov oldidan interfaol doska va multimedia dasturidan foydalanish) hisobiga katta hajm va shiddatdagi o'yin elementlari va kombinatsiyalarini o'zlashtirish uslubiyati «Спортивные игры в системе физического воспитания студентов высших образовательных учреждений» deb nomlangan o'quv qo'llanma mazmuniga sindirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 23 noyabrdagi 500-son bo'yruq'iga asosan 500-167-raqamli guvohnoma). Natijada, texnik tayyorgarlik bo'yicha 26 ta test sinovlari ko'rsatkichlari bo'yicha natijalar 9-10% ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalar ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarininng e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha

jami 17 ta ilmiy-uslubiy ish e'lon qilingan bo'lib, shu jumladan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta (2 ta respublika va 2 ta xalqaro jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat bo'lib, 120 sahifali matn, 31 ta rasm, 17 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr etilganligi, ishning tuzilishi va hajmi borasida ma'lumotlar aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayonida sport o'yinlaridan foydalanish muammosi yuzasidan ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida shu aniqlanganki, sport o'yinlarining ommaviyligi, birinchi navbatda, iqtisodiy jihatdan hammabopligiga (jihozlarni sotib olish uchun kam mablag' sarflanishi, sport maydonchalarining oddiyligi), shuningdek o'yinlarni yuqori emotsionalligi hamda tomoshabop samaraga ega ekanligiga bog'liq.

V.P. Guba, A.V. Rodin, T.S. Ignatenko, D. Brooks, P.V. Komi kabi olimlar uz tadqiqotlarida sport o'yinlari (mini-futbol, voleybol, basketbol, gandbol) talabalarning jismoniy tarbiya vositasi sifatida alohida qo'llanilishini asoslab berishgan. Ta'lim jarayonida sport texnologiyalaridan foydalanish shaxsan musobaqa faoliyatini kiritishni nazarda tutadi, uning mohiyati talabalarning sport qiziqishlarini inobatga olish, ularning musobaqalar jarayonida erishgan yutuqlarini taqqoslashdan iborat. Bunda malakaviy me'yoriy talablarni bajarish vazifasi qo'yilmaydi. Talabalar tanlangan sport turi bo'yicha seksiya mashg'ulotlariga katta qiziqish namoyon qiladilar (39,26%).

R.N. Abduazimova, J.A. Akramov, B.B. Musaev, V.S. Ashanin, C.A. Garsiya kabi olimlar uz asarlarida talabalarning ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalari, ta'lim oluvchilar bilan faol muloqot qilish, o'zaro faoliyat yuritish usullari va vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini jadallashtirish hamda individuallashtirishga imkon ochib berganlar. Talabalarning ta'lim va o'quv-mashg'ulot jarayonida axborot texnologiyasining shunday vositalari - bu multimedia, animatsiya vositalari hisoblanadi (o'tkazilgan o'yinlarning videoyozuvlarini ekranda namoyish qilish orqali texnik usullar va taktik harakatlarga o'rgatish).

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, salomatlikni mustahkamlash va individual hamda psixologik yondashuvlar tamoyilini amalga oshirish, yurak ritmi monitorini qo'llagan holda yuklamani tartibga solish asosida OTM

namunaviy dasturida nazarda tutilgan me'yoriy talablarni muvaffaqiyatli bajarish uchun gandboldan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish talabalarning jismoniy tarbiya amaliyoti ehtiyojlariga bog'liq.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotni o'tkazish dolzarbligi va zarurati ochib berilgan bo'lib, unda quyidagi uslublardan foydalanganlik yoritilgan: ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; antropometriya; tashqi nafas va yurak-qon tomir tizimi funksiyasini baholash (Shtange va Genchi sinovlari); testlash; pedagogik kuzatuvlar; instrumental usuli (yurak ritmi monitori); matematik statistika usullari.

Talabalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining asosiy maqsadi - kasbiy faoliyatga tayyorlash, salomatlikni saqlash va mustahkamlashdir. Har bir talaba jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish zarurligini anglab yetishi lozim. 2018-2021 o'quv yillarida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (TDIU) 1- va 2-kurs talabarlari asosiy guruhlari bilan tasdiqlovchi pedagogik tajriba o'tkazilib, uning maqsadi 23 ta ko'rsatkichlar (jismoniy rivojlanish parametrlari: tana uzunligi; tana vazni; ko'krak qafasi aylanasi - nafas olishda, nafas chiqarishda, tinch holatda; bo'yin aylanasi; bitseps aylanasi; o'ng va chap qo'l kaft kuchi; qorin aylanasi; stanli kuchi; o'pkaning tiriklik sig'imi; tana vazn indeksi; tana yog' massasi; tana faol massasi, sistolik va diastolik arterial bosim; jismoniy tayyorgarlik: 100 m.ga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash, 1000 m.ga kross, baland turnikda tortilish) bo'yicha har tomonlama tayyorgarlikni baholashdan iborat bo'ldi.

Olingan natijalarni tahlil qila turib, shu narsa aniqlandiki, aksariyat talabalar qoniqarsiz jismoniy va funksional tayyorgarlikka ega. Bu, talabalarda jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish va xohishni yo'qligi sabablaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, sportga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya asosida talabalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan motivatsiyani oshirish muhimligi aniqlandi. 23 ta parametrga gandbol bo'yicha musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari ham kiritildi: umumiy texnik-taktik harakatlar (TTH) soni, ularning samaradorligi; to'p uzatish, uning samaradorligi; to'pni darvozaga uloqtirish, uning samaradorligi.

Keyinchalik 26 ta ko'rsatkich bo'yicha juft korrelyatsiya o'tkazildi. O'zaro bog'liqliklarni qarab chiqayotib, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, jismoniy holat darajasi orasida yuqori bog'liqlik ($r=0,75-0,98$) mavjudligi, ayniqsa yuqori yelka kamari parametrlarida aniqlandi, bu, yelka kamari mushaklarini rivojlantiruvchi gandbol vositalaridan foydalanish zarurligidan dalolat beradi. Texnik-taktik harakatlar (TTH) soni va ularning samaradorligi orasida yuqori darajadagi bog'liqlik qayd etildi ($r=0,85$), shunday bog'liqlik to'p uzatish samaradorligi va TTH soni orasida ham aniqlandi. To'pni ushlab olish, uzatish, to'pni darvozaga uloqtirish, maydonda harakatlanishlar, to'xtashlar, aldanchi harakatlar turli xil mushaklarning katta guruhini o'yin faoliyatida ishtirok etishini talab qiladi.

Yuqoridagilar gandboldan foydalanish texnologiyasi asosida talabalarning sportga yo'naltirilgan jismoniy tarbiyasi mazmunini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiyaning **“Gandbol vositalarini qo'llash bilan talabalarni tashkillashtirilgan jismoniy tarbiyasini loyihalashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari taqdim etilgan. Jismoniy rivojlanish, funksional hamda jismoniy tayyorgarlikni tekshirish yog' massasining 10% gacha yetishmasligini ko'rsatdi. O'rtacha 60% talabalarda shu narsa qayd etildiki, arterial bosim biroz yuqoriroq; jismoniy holat darajasi 52% talabalarda past; o'ng va chap qo'l kaft kuchi ko'rsatkichlarida juda past natijalar aniklandi - $44\pm 4,2$, $42\pm 4,1$ kg va bu 47,5% talabalarda qayd qilindi. Quyidagi ko'rsatkichlar yuqori ta'sir darajasiga ega: arterial bosim (R=30); turgan joydan uzunlikka sakrash (R=26); bo'yin aylanasi (R=25); tana uzunligi (R=25); bitseps aylanasi (R=22). Bayon qilinganlar talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilashning samarali vositalarini izlab topish zarurligidan darak beradi.

Statistik tavsiflar tahlilining ko'rsatishicha, quyidagi ma'lumotlar katta qiymatlarga ega: sistolik arterial bosim - R=30; turgan joydan uzunlikka sakrash - R=26; bo'yin aylanasi - R=25; tana uzunligi - R=23; jismoniy holat darajasi (JHD) - R=22; tananing faol massasi (TFM) - R=21; o'ng qo'l kaft kuchi - R=21; bitseps aylanasi - R=22.

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari orasida yaqindan uzviy bog'liqlik aniqlandi: tana vazni - tana vazn indeksi ($r=0,98\%$); bitseps aylanasi - ko'krak qafasi aylanasi ($r=0,98$); bo'yin, biseps aylanasi va KQA orasida ($r=0,75$). Talabalarni jismoniy takomillashtirish dasturini loyihalashtirishda yuqori yelka kamarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan foydalanish zarur. JHD va sistolik arterial bosim orasida salbiy bog'liqlik aniqlandi ($r=-0,77$), yurak-qon tomir tizimining ishini yaxshilash vositasi sifatida chidamlilikni rivojlantiruvchi jismoniy mashqlardan foydalanish lozim; gandbol o'yinining musobaqa faoliyati ma'lumotlari orasida yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik aniqlandi ($r=0,88\%$). O'yinda va amaliy mashg'ulotlarda TTH larni bajarish sonini ko'paytirish zarur.

Talabalarning har tomonlama tayyorgarligi ko'rsatkichlari orasidagi o'zaro bog'liqliklarning (20) xususiyatlariga asoslanib, yuqori korrelyatsiya koeffitsientiga ega ishonchli testlar ($r=0,77-0,99$) aniqlandi: tana uzunligi, tana vazni, tana vazn indeksi, KQA, bitseps va bo'yin aylanasi, to'p uzatish samaradorligi va soni, TTH lar samaradorligi va soni.

Talabalarning jismoniy tarbiya ta'lim jarayoniga gandbol vositalarini joriy etish uchun amaliy materialni o'tish reja-jadvali ishlab chiqildi. Birinchi semestr va ikkinchi semestr bir xil, ya'ni qo'shaloq yillik siklni tashkil qildi. Har bir sikl tayyorgarlik davridan iborat bo'lib, u, umumiy tayyorgarlik (8 hafta), maxsus tayyorgarlik bosqichidan (6 hafta) iborat bo'ldi, musobaqa davri (bir hafta) va o'tish davrini (3 hafta) o'z ichiga oldi. Jami 1-semestrda 36 soatni va 2-semestrda 36 soatni, jami 72 soatni tashkil etdi (1-jadvalga qarang).

Umumiy tayyorgarlik bosqichida UJT ustunlik qiladi. Birinchi navbatda, talabalarning harakat tayyorgarligi yetarli emas, bu holat tadqiqot jarayonida aniqlangan, o'z navbatida, organizmning yuqori ishchanlik qobiliyatini ta'minlash uchun uni har tomonlama rivojlantirish zarur.

Ayni paytda, UJT talabani yanada baquvvat, sog'lom qiladi, katta mashg'ulot yuklamalariga bardosh berish uchun jismonan tayyor holatga keltiradi, samarali maxsus mashg'ulotga tayyorlaydi.

UJT maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) uchun poydevor yaratadi. UJT dasturi (8 hafta) talaba oldiga quyidagi vazifalarni hal etishni qo'yadi: kuchni namoyon qilish qobiliyatini oshirish: mushaklarni rivojlantirish, umumiy chidamlilikni oshirish, mushaklar egiluvchanligini (cho'ziluvchanligini) va bo'g'imlardagi harakatchanlikni yaxshilash, irodani tarbiyalash va toliqishga bardosh berish, bo'shashtirish ko'nikmasini hosil qilish.

Maxsus tayyorgarlik davri dasturi (6 hafta) quyidagi vazifalarni ko'yadi: maxsus kuch chidamliligini oshirish; maksimal kuch berishlarni namoyon qilishga bo'lgan irodani tarbiyalash; diqqatni va kuch berishlarni jamlash; portlovchi kuchni namoyon qilish qobiliyatini tarbiyalash; mardlik va qat'iyatlilikni tarbiyalash.

Individual taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirish dasturi to'pni ushlab olish, to'p uzatish, to'pni darvozaga uloqtirish, to'p uchun kurashish vazifalarini hal etadi.

Guruhli taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirish juftlikda, uchlikda hujum harakatlarining boshlanishi, davom etishi va yakunlovchi fazalarida o'yinchilarning o'zaro harakatlanishlari bo'yicha vazifalarni xal etadi. O'yinchilarning himoyadagi xatti-harakatlari, standart vaziyatlarda o'ynash: to'pni maydon tashqarisidan o'yinga kiritish, jarima zarbasini o'ynash. Ham himoyada, ham hujumda chiziqda 5 ta, 4 ta himoyachi va bitta hujumchi tizimi bo'yicha jamoaviy harakatlarga o'rgatish va takomillashtirish asosan o'quv va o'rtoqlik o'yinlarida amalga oshiriladi, yana o'rtoqlik va rasmiy o'yinlarni o'tkazishda ularga harakatlar o'rgatiladi.

Talabalar har tomonlama tayyorgarligining o'zgarish dinamikasini muntazam nazorat qilib borish optimal yuklamalarni aniqlash, oqilona mashqlarni tanlash va amaliy mashg'ulotlarga o'z vaqtida ta'sirli tuzatishlar kiritish uchun zarurdir. Gandbol bo'yicha musobaqalar natijalariga qarab jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilganligi va rejalashtirilganligi to'g'risida fikr yuritish mumkin. Biroq ba'zida muvaffaqiyatsizlikning asl sababini aniqlash juda qiyin bo'ladi. Ushbu vaziyatda pedagogga ham, talabaga ham alohida harakat sifatlarining rivojlanish darajasi hamda gandbol bo'yicha musobaqa faoliyatini ifodalovchi nazorat mashqlari katta yordam berishi mumkin.

Nazorat mashqlaridan tashqari, jismoniy rivojlanish, tashqi nafas olish funksiyasini o'lchashlar maxsus panja dinamometri va stanometr, quruq spirometr apparaturalari yordamida ham amalga oshiriladi. Barcha olingan ma'lumotlarni taqqoslash hamda tahlil qilish talabaning xar tomonlama tayyorgarligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

E'tirof etish muhimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bilimlarni reyting tizimi asosida baholashga ko'rsatma berilgan.

1-jadval

O'quv jarayonida talabalar uchun gandbol bo'yicha nazariy va amaliy materiallar reja-jadvali
(I-II semestrlar)

T/p	Nazariy va amaliy materiallar	Semestr uchun jami soatlar	Davr																																
			Tayyorgarlik umumiy tayyorgarlik bosqichi						Musobaqa maxsus tayyorgarlik bosqichi						O'tish bosqichi																				
			Amaliy mashg'ulotlarning tartib raqami						noyabr-dekabr, aprel-may						yanvar, iyun																				
sentyabr-oktyabr, fevral-mart.						sentyabr-oktyabr, fevral-mart.						sentyabr-oktyabr, fevral-mart.						sentyabr-oktyabr, fevral-mart.																	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31					
1	Nazariy ma'lumotlar	2.35	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0				
2	Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar	4.10	15,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	15,0	25,0			
3	Maxsus mashqlar	5.45	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	45,0	35,0			
4	Individual taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirish	3.40																																	
5	Guruhl taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirish	2.00																																	
6	Jamoaviy taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirish	2.40																																	
7	Stretching	2.30	10,0	10,0	15,0	15,0	15,0	15,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0	10,0			
8	O'quv, o'rtoqlik o'yinlari	1.10																																	
9	Rasmiy musobaqalar	5.00																																	
10	Mustaqil mashg'ulotlar	4.00	20,0	20,0	30,0	30,0	30,0	30,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	20,0	50,0	
11	Test sinovlari	2.30	20,0	20,0																															
JAMI:			I - II SEMESTR UCHUN – 72 SOAT																																

Talabalar bilimlari sifatini reyting tizimi asosida nazorat qilish deganda ta'lim oluvchining o'qish natijalari va uning borishini baholashga bo'lgan yagona yondashuvlarni belgilab beruvchi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar, qoidalar yig'indisi tushuniladi. Talabalar uchun mo'ljallangan me'yorlarni baholashning reyting nazorati Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan. Ikki xil turdagi reytingdan foydalanildi: joriy va yakuniy. Joriy reyting nazorati - bu talabaning ma'lum bir vazifalar jamlanmasini bajarish jarayonida erishgan natijalarini qayd etish uslubidir. 8-hafta oxirida umumiy tayyorgarlik davrida quyidagi testlar bo'yicha sinov o'tkazildi: 100 m.ga yugurish, 1000 m.ga kross, turnikda tortilish va turgan joydan uzunlikka sakrash. Maxsus tayyorgarlik bosqichi tugagandan so'ng texnik-taktik harakatlar ma'lumotlari olindi, to'pni darvozaga uloqtirish bo'yicha testlash o'tkazildi. O'tish davri tugagandan keyin jismoniy rivojlanish darajasi va jismoniy holat darajasi (JHD) baholandi. Mustaqil ish kuch sifatlarining rivojlanish ma'lumotlari bo'yicha baholandi (2-jadvalga qarang).

2- jadval

Me'yorlarni baholashning reyting nazorati

T/ r	Me'yorlar	Baholar			
		5	4	3	2
1-modul (Tayyorgarlik bosqichi)					
1.	100 m. ga yugurish, son.	12,6	12,9	13,2	13,5
2.	1000 m. ga yugurish, daq. son.	3.40,0	3.30,0	3.50,0	4.00,0
3.	Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm.	250	245	240	235
4.	Turnikda tortilish, marta	16	15	14	13
2-modul (Musobaqa bosqichi)					
5.	Texnik va taktik harakatlar, marta	36	31	26	21
6.	To'pni darvozaga uloqtirish, marta	15	12	9	6
Yakuniy nazorat (O'tish bosqichi)					
7.	Tana vazn indeksi, kg/m ²	25	24	23	22
8.	Tana yog' massasi, %	12	11	9,5	8
9.	O'TS, l.	6	5	4	3
10.	JHD	0,377	0,376	0,375	0,374
11.	YuQS tinch xolatda, zarba/min.	63	66	69	72
Mustaqil ish					
12.	O'ng qo'l kaft kuchi, kg.	55	52	50	48
13.	Chap qo'l kaft kuchi, kg.	46	44	42	40
14.	Stanli kuchi, kg.	157	145	133	121

Axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim mazmuni, uslublari va tashkiliy shakllarini sifat jihatdan o'zgartiradi, ular ma'lum bir sharoitlarda ta'lim oluvchilarning individual qobiliyatlari, shaxsiy sifatlarini saqlash hamda rivojlantirishga yordam beradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, kompyuterdan

foydalanish an'anaviy o'qitish usulublari oldida ko'p afzalliklarga ega. Mashg'ulotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanganda talaba faol ishtirokchi sifatida o'quv jarayoniga jalb qilinadi. Bu ayniqsa an'anaviy o'qitish shakllari bilan taqqoslaganda juda muhim, zero bu vaziyatda talaba passiv bo'ladi. Kompyuter dasturlari o'qitishni individuallashtirishga, talabalarning mustaqil harakatlarini tashkil etishga imkon beradi.

Har bir talaba o'ziga nisbatan kuchsiz yoki undan kuchli kursdoshlriga bog'liq bo'lmagan holda oz sur'atida ishlash imkoniyatiga ega. Kompyuter unda o'z faoliyati refleksiyasining shakllanishiga yordam beradi, o'z harakatlari natijasini ko'z orqali ko'rish imkonini yaratadi. Tajribamiz shuni ko'rsatadiki, kompyuter bilan faol ishlaydigan talabalarda mustaqil ta'lim olish malakalarining yuqori darajasi shakllanadi, ko'p axborot oqimida mo'ljal ola bilish, asosiysini ajratib olish, umumlashtirish, xulosalar qilish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Shuning uchun ham tabiiy, ham gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'qituvchining zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlarini ochib berishdagi roli juda muhim.

Sport amaliyotida sog'lomlashtiruvchi aerobika, atletik gimnastika bo'yicha multimedia dasturlari ishlab chiqilgan. Zamonaviy gandbol quyidagi texnik usular: darvozaga zarbalar berish, raqibni aldab o'tish, to'p uzatishlarni yuqori darajada o'zlashtirishni taqozo etadi, shu sababli barcha tayyorgarlik bosqichlarida o'quv-mashg'ulot jarayoni sportchilarning individual texnikasini batafsil tahlil qilish imkoniyatiga asoslanishi kerak. Buning uchun har bir o'yinchi texnikasini oddiy vizual tahlil qilish yetarli bo'lmaydi, chunki gandbolchining texnik usullarni yuqori tezlikda bajarishi ularni bajarishning nozik qirralarini aniq ilg'ab olishga imkon bermaydi. Bunda barcha tayyorgarlik bosqichlarida axborot texnologiyalarini yanada kengroq qo'llash, ayniqsa texnik usullar va taktik harakatlarni takomillashtirishda foydalanish taqozo etiladi, bu tadqiqotning maqsadini belgilab berdi.

Avval olingan ma'lumotlar asosida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda texnik usullar va taktik harakatlarni takomillashtirish uslubiyati ishlab chiqildi. Pedagogik tajriba o'tkazildi, unda TDIU ning 1- va 2-kurs talabalari ishtirok etdi.

Amaliy mashg'ulotlarda slaydlarda ko'rsatilgan multimedia prezentatsiyalari (taqdimotlari) qo'llanildi, bu yerda texnik usullar, taktik harakatlarning bajarilishi o'qituvchining tushuntirishlari bilan namoyish qilindi.

Gandbol vositalari qo'llanilgan amaliy mashg'ulotlarning kompyuter dasturi to'pni uloqtirish texnikasini tushuntirish va videotasvirlar xamda materiallarni kompyuterda ishlab chiqish yordamida mustaqil tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, shuningdek, professional gandbolchilar tomonidan to'pni uloqtirish texnikasi yozib olingan videoyozuvlarni namoyish qilish (Kaliforniya universitetida ishlab chiqilgan) amalga oshirildi. Videokassetani tomosha qilish bir oyda 1 marta o'tkazildi. Ko'rgazmali qurollar har bir talabaga chegaralanmagan muddatga uyda batafsil o'rganib chiqish uchun berildi. Ko'rgazmali qurolni tayyorlashda yuqori toifali (birinchi razryaddan past bo'lmagan) sportchilar taklif qilindi, eng muvaffaqiyatli chiqqan materiallar tanlab olindi.

Tayanch holatda to'pni uloqtirishni yuqoridan to'pga qamchidek tezlik berishni

o'rganishdan boshlash kerak. Dastlabki holat - o'ng oyoqda turib, chap oyoq oldinda, to'p ushlab turgan o'ng qo'l yuqorida, tanani biroz burish. Chap oyoqni polga qo'ya turib, talaba to'p bilan zarbani bajaradi. Muhimi, to'p chap oyoqni polga qo'ygunga qadar dastlabki holatda qolishi zarur. Talaba oldinga qadamma-qadam harakatlana boshlaganda uning tanasini old mushaklari va qo'llari cho'ziladi va uloqtirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga imkon beradi. Keyingi bosqich - 3 qadamdan yugurib kelib, to'pni uloqtirishni yaxlit bajarish. Ko'pincha chalishtirma qadamlar bilan yugurib kelib zarba berish qo'llaniladi. Birinchi qadamni talaba nomdosh bo'lmagan oyoqda bajaradi, bunda u to'pni uloqtirish uchun xech qanday tayyorgarlik harakatlarini amalga oshirmaydi. Keyin, qo'lini siltash uchun orqaga uzatib, yugurib kelish yo'nalishiga yon tomoni bilan o'giriladi va ikkinchi chalishtirma qadamni bajaradi, bunda u oyoq kaftini shu yo'nalishga burchak ostida qo'yadi.

O'zaro qadam bo'lmagan oyoqni yerga qo'yishi bilan to'pni uloqtirish amalga oshiriladi. Chalishtirma qadamni yengilgina sakrash bilan bajarish mumkin va ikki tayanchli mustahkam holatni egallashga intilib, uchinchi qadamni tashlash mumkin.

Keyingi tadqiqotlar gandbol vositalaridan foydalanganda o'quv-mashg'ulot jarayonida axborot texnologiyalari qo'llanilishining ilmiy-uslubiy yo'nalishlarini rivojlantirishni nazarda tutadi(1-rasmga qarang).

Multimedia taqdimoti.
Slaydlarni tushuntirishlar (izohlar) bilan namoyish qilish

